



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

BUYRUQ № 238-T

07 – oktabr 2023-yil

Samarqand shahri

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali “Qalqon” jamoatchilik
guruhini tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 11-aprel kuni “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida berilgan topshiriqlarni amalga oshirish hamda talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamoat tartibini saqlashga ko'maklashish, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish, filialda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada barqarorlashtirishga ko'maklashish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-avgustdagi 30-Q/Q-sonli qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-avgustdagi 30-Q/Q-sonli qo'shma qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Filialda “Qalqon” jamoatchilik guruhini tashkil etish to'g'risida”gi Nizom (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) 1-ilovaga, “Qalqon” jamoatchilik guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Filial Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi (B.Baxodirov)ga:
“Qalqon” jamoatchilik guruhi faoliyatini muvofiqlashtirish;
Jamoatchilik guruhi faoliyatini tashkil etishda mudofaa, ichki ishlar, milliy gvardiya, yoshlar siyosati va sport vazirliklarining hududiy boshqarmalari hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
Jamoatchilik guruhi a'zolari faoliyati davomida foydalanishi uchun uslubiy qo'llanmalar tayyorlash;
Jamoatchilik guruhi faoliyati yuzasidan har chorak yakunida filial direktoriga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.
4. Bosh hisobchi (R.Eshaliyev)ga:
Mudofaa vazirligi tomonidan taqdim etilgan namuna asosida jamoatchilik guruhi a'zolarini maxsus ajratuvchi belgilarga ega bo'lgan kiyim (forma) va a'zolik guvohnomasi bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona mudirasi N.Shukurovaga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-avgustdagi 30-Q/Q-sonli qo'shma qarori nusxalarini barcha direktor o'rinbosarlari, fakultet dekani, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga o'rnatilgan tartibda yetkazish vazifasi yuklatilsin.


6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.Turdibekov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 28-avgustdagi 30-Q/Q-sonli qo'shma qarori.

Direktor

O.Murtazayev

Asliga to'g'ri



M.Abdurahmonova